MAKTAB-OILA-MAHALLA ZANJIRIDA FARZAND TARBIYASINI AMALGA OSHIRISHDA “MUHABBAT PEDAGOGIKASI”DAN FOYDALANISH METODIKASI

Safarova Roxatoy Gaybillayevna
pedagogika fanlari doktori, professor
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti
“Milliy tarbiya mutafakkirlar hamda jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab, oila va mahalla hamkorligi zanjirida farzand tarbiyasini samarali tashkil etishda “muhabbat pedagogikasi” tushunchasining mazmun-mohiyati va metodologik asoslari yoritilgan. Sharq mutafakkirlari, islomiy-ma’rifiy manbalar, tasavvuf ta’limoti, jadidchilik hamda zamonaviy insonparvarlik pedagogikasi namoyandalarining mehr va empatiyaga asoslangan qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, Prezidentimizning PQ-232-sonli qarori ijrosini ta’minlash va o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirishda “muhabbat pedagogikasi” tamoyillari hamda uni amaliyotga tatbiq etishning aniq mexanizmlari, strategiyalari va metodlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Muhabbat pedagogikasi, maktab-oila-mahalla hamkorligi, insonparvarlik, Jen tushunchasi, empatiya, tarbiya xaritasi, ma’naviy immunitet, qadriyat, refleksiv yondashuv.

Аннотация: В данной статье освещаются сущность и методологические основы понятия «педагогика любви» в эффективной организации воспитания детей в цепочке сотрудничества школы, семьи и махалли. Проанализированы взгляды восточных мыслителей, исламско-просветительских источников, учения суфизма, джадидизма и современной гуманистической педагогики, основанные на любви и эмпатии. Также обоснованы принципы «педагогики любви» и конкретные механизмы, стратегии и методы ее внедрения в практику в обеспечении исполнения постановления Президента No ПП-232 и формировании духовного иммунитета у учащейся молодежи.

Ключевые слова: Педагогика любви, сотрудничество школа-семья-махалля, гуманизм, концепция Джен, эмпатия, карта воспитания, духовный иммунитет, ценность, рефлексивный

подход.

Abstract: This article highlights the essence and methodological foundations of the concept of “pedagogics of love” in the effective organization of child upbringing within the chain of cooperation between school, family, and mahalla. The views of Eastern thinkers, Islamic enlightenment sources, the teachings of Sufism, Jadidism, and representatives of modern humanistic pedagogy based on love and empathy are analyzed. Furthermore, in ensuring the implementation of Presidential Decree No. PP-232 and forming spiritual immunity in student youth, the principles of “pedagogics of love” and specific mechanisms, strategies, and methods for its practical implementation are substantiated.

Keywords: Pedagogy of love, school-family-mahalla cooperation, humanism, Jen concept, empathy, educational map, spiritual immunity, value, reflexive approach.

Sharq xalqlari tarbiya tarixida “muhabbat pedagogikasi” muhim o‘rin egallaydi. “Muhabbat pedagogikasi”ni sharqona tarbiya kontekstida mehr-shafqat ko‘rsatish, insonparvarlik, odob-axloq, o‘z- o‘zini tarbiyalash, shaxslararo munosabat madaniyatini egallash, tarbiyaviy jarayonning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu jarayonda muhabbat faqat his-tuyg‘udan iborat emas, balki axloqiy amal, munosabat, me’yoriy asos va tarbiya metodi sifatida namoyon bo‘ladi. Konfutsiylik ta’limotida insonparvarlikka ustuvor o‘rin berilgan bo‘lsa, Sharq xalqlari tarixida mehr-muhabbatga asoslangan axloqiy tarbiyaning katta qutblaridan biri Jen (Z) insonparvarlik, hamdardlik, boshqani sevish g‘oyasi ustuvorlik qiladi. Konfutsiy ilgari surgan tarbiya nazariyasida ham atrofdagilarga mehr-muhabbat bilan yondashish, ularni qadrlash, mehr-shafqat ko‘rsatish yetakchi o‘rin egallaydi. Jen (Z) tushunchasi “muhabbat pedagogikasi” yoki insoniy mehr-shafqatga asoslangan tarbiyadir. Bu “muhabbat pedagogikasi” g‘oyalariga juda yaqin, lekin undan muayyan jihatlari bilan farqlanadi.

Jen Konfutsiy asoslagan axloqiy fazilatning markazida turadi. Uning asosini atrofdagilarni sevish, avaylab asrash, ularga mehr-shafqat va insonparvarlik bilan yondashish, boshqa inson manfaatini his etish va o‘zi xohlagan munosabatni atrofidagilarga ham qo‘llash tamoyili tashkil etadi. U insoniy munosabatlarda namoyon bo‘lib, tarbiya orqali shakllanadi.

Sharq xalqlari tarbiyaviy tafakkurida muhim o‘rin egallagan “muhabbat pedagogikasi” ham odatda bolalarga mehr, ishonch, hurmat nuqtayi nazaridan qarashni taqozo etib, ushbu o‘rinda o‘qituvchi, ota-ona hamda atrofdagilarning axloqiy namunasi muhim ahamiyatga

ega. Chunki tarbiyada empatiya, g‘amxo‘rlik va qadrlash, ya’ni qadriyatli munosabatlar alohida imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda Jen “muhabbat pedagogikasi” ning aksiologik negizini tashkil qiladi.

Konfutsiy tomonidan ilgari surilgan Jen tushunchasi doirasida odob, marosim, qoida, me’yoriy tartib qoidalar bilan yonma-yon keladi, ya’ni mehr-insonparvarlik munosabat qoidalari orqali amalga oshadi va tartib rivojlanadi. “Muhabbat pedagogikasi” da esa ba’zan me’yordan ko‘ra bola shaxsini markazga qo‘yish, qo‘llab-quvvatlovchi muhit, hamkorlikka ko‘proq e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, g‘amxo‘rlik axloqi “muhabbat pedagogikasi” da yetakchi o‘rin egallaydi.

"Muhabbat pedagogika" sida islomiy-ma’rifiy an’analar ham muhim o‘rin egallaydi. Mazkur an’analar maktab-oila-mahalla hamkorligi zanjirida o‘ziga xos tarzda talqin etiladi. Islomiy tarbiya nuqtayi nazaridan muhabbat tushunchasi his-tuyg‘udan kengroq mohiyat kasb etadi, bunda rahmat, shafqat, iliq muhabbat, sevgi kabi tushunchalar shaxsning oila, jamiyat va ta’lim jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini belgilaydi. Bu qarashlarda muhabbat odob, adolat, mas’uliyat, hamdardlikka aylanib, tarbiyaning "ilm-axloq-qalb tarbiyasi" birligida talqin etilishini ta’minlaydi.

Tasavvuf ta’limotida ham “muhabbat pedagogikasi" rivojlantirilgan. Tasavvuf ta’limotida muhabbat orqali nafsni tarbiyalash, ichki poklanish, kamtarlik, odob, sabr, kechirim kabi fazilatlarning tarbiyaviy mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy tarbiya tizimida esa bu g‘oyalarni "ichki intizom, ma’naviy immunitet, muomala madaniyati"-ga aylantirish mumkin. Bunda maktab-oila-mahalla hamkorligi mexanizmidan foydalanish taqozo qilinadi.

Markaziy Osiyo xalqlari ma’rifiy dunyoqarashi va adabiyotida muhabbat, mehr g‘oyasi bolaga nisbatan xushmuomalalik, ustoz, ota-ona va kattalarning shaxsiy namuna ko‘rsatishi, so‘z va amal birligi, jamoaviy hamjihatlik va hamkorlik, ezgulikka undash kabilar tarbiyaviy me’yorlar sifatida baholanadi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy fazilatli jamiyat, inson kamoloti, axloqiy tarbiyani ijtimoiy muhit bilan bog‘lagan holda mehrga asoslangan qadriyatli tarbiya modeliga asos solgan. Ibn Sino tarbiyada aql-axloq-iroda uyg‘unligi, bola tabiati va tarbiyaning maqsadliligi haqidagi klassik qarashlari bilan “muhabbat pedagogikasi” ning qadr-qimmat tamoyiliga asoslangan holda o‘z g‘oyalarini bayon qilgan. Al-G‘azzoliy nafs tarbiyasi, odob, axloq va ma’naviy kamolotni tarbiyalashda “muhabbat pedagogikasi” imkoniyatlaridan foydala- nishni tavsiya qilgan. Sa’diy Sheroziy esa insonparvarlik, mehr-shafqat, axloqiy hikmatlarini “muhabbat pedagogikasi” ning badiiy-tarbiyaviy vo-

sitasiga aylantirgan. Tasavvuf ta’limotining yirik namoyondasi Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlarida tasavvufiy odob, ruhiy poklanish, axloqiy kamolot orqali yosh avlodni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Jaloliddin Rumiy g‘oyalari asosida “muhabbat pedagogikasi” dialog va refleksiyani ta’lim-tarbiyaga moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Alisher Navoiy esa yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ishq, ilohiy muhabbat, insonparvarlik va ruhiy yuksalish timsollaridan foydalanishni nazarda tutgan. O‘z navbatida jadid ma’rifatparvarlari ham tarbiyada “muhabbat pedagogikasi” imkoniyatlaridan foydalanishga oid asosiy taklif va tavsiyalarni ilgari surganlar. Jumladan, Abdulla Avloniy tarbiyaning hayotiy ahamiyati, jamiyat va inson kelajagi uchun hal qiluvchi omil ekanligi haqidagi qarashlari bilan “oila-maktab-jamoa” birligida tarbiyalash g‘oyasini rivojlantirgan. Ko‘rinib turibdiki, o‘zida ezgulik, negbinlik g‘oyalarini mujassamlashtirgan “muhabbat pedagogikasi” dastlab axloqiy tarbiya “odob”, “shafqat”, “insonparvarlik” tarbiyasi sifatida shakllangan. Bu tarbiyaning asosiy usul va metodlari pand-nasihat, hikmat, namuna, ustoz-shogird an’anasi, suhbat kabilarda o‘z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida tasavvuf ta’limoti orqali muhabbatni qalbni poklash, muloyim munosabat, inson qadrini ulug‘lash kabi yo‘nalishlar bilan boyitgan. O‘tgan XX asrga kelib “muhabbat pedagogikasi” tarbiya uslubidan ilmiy-pedagogik konseptga aylandi. Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari shaxsga yo‘naltirilgan, qadr-qimmatni himoya qiluvchi, qo‘rquvsiz muhit yaratishga yo‘naltirildi. Biroq, bu davrda asosiy mas’uliyat maktab zimmasiga yuklandi. Ota-ona va mahallaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish kommunistik mafkura ta’sirida ikkinchi planga o‘tib qoldi. O‘qituvchi muhabbatining o‘quvchilar taraqqiyotiga ta’sir qonuniyatlari aniqlandi. “Muhabbat pedagogikasi”ni amaliyotda tizimli targ‘ib qilgan yo‘nalishlardan biri Shalva Amonashvilining insonparvarlik pedagogikasiga oid qarashlari bo‘lib, unda bolaga qo‘pollik, bosim ko‘rsatish, uning qadr-qimmatini kamsitish qat’iy rad etiladi. Amonashvilining tarbiyaviy tizimi “insonparvarlik pedagogikasi” nomi bilan ommalashgan. U bolani hayotga tayyorlash tamoyiliga asoslanmay, balki bolalikni hayotning eng muhim bosqichi sifatida tushunishga tayanadi. Gumanistik yondashuv muallifi sifatida Amonashvili o‘z pedagogik faoliyatining uchta asosiy qoidasini ilgari surgan:

1. Bolani sevish. O‘qituvchi insonparvar bo‘lishi kerak, chunki aynan shu fazilatsiz insonda insonparvarlik ruhini tarbiyalab bo‘lmaydi. “Muhabbat pedagogikasi” qo‘pollikni, bosimni, qadr-qimmatni poymol qilishni, bola hayotini e’tiborsiz qoldirishni inkor etadi.

2. Bola yashaydigan muhitni insonparvarlashtirish talab etiladi.

Bunda bolaning muloqot qiladigan barcha sohalariga diqqat qaratish, unga ruhiy xotirjamlik va muvozanatni ta'minlashni nazarda tutadi. Hech narsa bolani bezovta qilmasligi, unda qo'rquv, ishonchsizlik, tushkunlik, haqoratlanish va kamsitilganlik hissini uyg'otmasligi kerak.

3. Bolada o'zining bolaligini his etishi. Bu bolalarning o'qituvchiga ishonishi, uning qalbidagi ezgulikni qadrlashi, muhabbatini qabul qilishi uchun ishonchli omil hisoblanadi. Shuningdek, bola hayoti va uning ichki dunyosini anglash usulidir.

"Muhabbat pedagogikasi" muayyan metod, vositalar va prinsiplarga tayanadi. "Muhabbat pedagogikasi" ning quyidagi metodlar yordamida maktab-oila-mahalla hamkorligidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ular: suhbat, dialog, empatiya, tinglay bilish, bolaning qadr-qimmatni himoya qilish, namuna ko'rsatish, ijobiy psixologik muhit yaratish, refleksiya, shuningdek, bir qator vositalar hikmatlar, badiiy matnlar, badiiy timsollar, she'r, qissa, hikoya, maqollar, jamoatchilikning tarbiyaviy faoliyati, kitobxonlikdan foydalanish kabilar. Maktab-oila-mahalla hamkorligida bolalarni tarbiyalashda "muhabbat pedagogikasi" bir qator prinsiplarga tayanadi.

Ular quyidagilar:

- inson qadri ulug', bunda har bir bola hurmat va qadrlashga loyiq ekanligi ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik tomonidan tan olinishiga erishish nazarda tutiladi;

- hamkorlikka asoslangan tarbiyada subyekt-subyekt munosabatlarini ta'minlash, bu jarayonda ota-onalar, o'qituvchilar, jamoatchlik bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda hamkorlikdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bir bolaga "yetti qo'shni ota-ona" shiorini tatbiq etish "muhabbat pedagogikasi" ning asosiy maqsadlaridan biridir;

- ezgulik va shafqat, o'qituvchi, ota-ona va mahalla faollarining bolalarga shafqat bilan munosabatda bo'lishlari, ularga mehr ko'rsatgan holda tarbiyalashlari natijasida muhabbat axloqiy amalga aylanadi.

- adolatlilik va me'yorga amal qilish, bunda muhabbat orqali bolani erkalatishdan farqli tarzda unda mas'uliyat hissini tarbiyalash nazarda tutiladi;

- individual yondashuv prinsipi doirasida esa ota-onalar, o'qituvchilar va mahalla jamoatchiligi har bir bolaning rivojlanish sur'ati turlicha ekanligini nazarda tutgan holda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish mexanizmlarini qo'llashlari lozim;

- qo'rquvsiz ta'lim-tarbiya muhitini yaratish prinsipi doirasida bolalarni tahdidsiz, hech qanday bosim ko'rsatmasdan tarbiyalash imkoniyatlari

kengaytiriladi;

- o‘zaro hurmat va hamkorlik prinsipi, ota-ona-maktab-jamoa birligini ta’minlab, bolalarni tarbiyalashning hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirishni anglatadi.

Bugungi kunda "muhabbat pedagogikasi" dan maktab-oila-mahalla hamkorligi zanjirida foydalanish alohida afzalliklarini taqdim etadi. O‘zbekiston sharoitida oila-mahalla-maktab hamkorligi o‘quvchi-yoshlar tarbiyasi uzviyligini ta’minlashning muhim konseptual yo‘nalishi hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232 sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida” qarorining "farzand tarbiyasida "maktab-ota-ona-mahalla" hamkorligining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish..." bandida nazarda tutilgan. Uning ijrosini ta’minlashda "muhabbat pedagogikasi"dan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va joriy etish zaruriyati mavjud.

Tarbiyada “muhabbat pedagogikasi” dan foydalanishning amaliy mexanizmlari sifatida:

1. Qadriyatlar kelishuvi metodidan foydalanishni nazarda tutish kerak. Bunda “tarbiya xaritasi” sini tuzishga e’tibor qaratiladi. Tarbiya xaritasida ota-ona, sinf rahbari, mahalla faollari “qaysi fazilatlar ustuvor?” degan savol bo‘yicha bir xilda javob berishlari talab qilinadi. Ushbu xaritada mehr-shafqat, hurmat, mas’uliyat, axloq-odob tarbiyasiga ustuvorlik beriladi.

2. Muomala madaniyati strategiyasi. Bunda o‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla hamda jamoat vakillari bolalarni kamsitmasdan tinglashlari, uni ayblamasdan xatolarini tushuntirish qoidalaridan oilada, maktabda, mahallada bir xilda foydalanishlari talab qilinadi.

Bu strategiya insonparvarlik pedagogikasi talablariga to‘liq mos keladi.

3. Dialogga asoslangan tarbiya jarayoni. Bu tizimda ota-ona universiteti, ota-onalar kengashi, mahalla yig‘inlarida tarbiya mavzusida suhbatlar, treninglar, munozara vaziyatlari, davra suhbatlari, turli uchrashuvlar tashkil etiladi. Bunday tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ota-ona, o‘qituvchilar va atrofdagilarning mehr-muhabbatini amaliy ko‘nikmaga aylantirishdan iborat.

4. Refleksiya va mediativ yondashuv strategiyasi. Ziddiyatli vaziyatlarda bolaga tahdid qilish, uni qo‘rqitish emas, balki tushuntirish, kelishuvga yo‘naltirish, mas’uliyatni his qildirish kabi metodlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Shu bilan bir qatorda oila, mahalla hamda maktablarda tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llashda ham mazkur strategiyadan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Oila-maktab-mahalla hamkorligidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni mehr ssenariysi asosida tashkil etish. Bu strategiya doirasida hasharlar, volontyorlik harakatlari, keksa va ehtiyojmand insonlarga yordam berish, kitobxonlik kechalari, “ustoz-shogird” uchrashuvlari tashkil etilib, mehr-muhabbatni jamoaviy faoliyat tajribasiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232 sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori.

2. Konfutsiy. Wikipedia, Wikimedia Foundation, ru.wikipedia.org/wiki/Konfutsiy.

3. Amonashvili Sh. Osnovy gumannoy pedagogiki. 2-ye izd., Svet, 2015.

4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.

5. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Mavorounnahr, 2004.

6. Abu Homid G‘azzoliy. Riyozatun – nafs. (Nafs tarbiyasi). – Toshkent: Movarounnahr, 2006.